

LINGVISTIK EKSPERTIZADA AXBOROTNING XAVFLILIK DARAJASINI BAHOLASH MEZONLARI

Soliyeva Nargisa Abdixamitovna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tadqiqotchisi, X.Sulaymonova nomidagi ekspert-kriminalistika markazi bosh eksperti, birinchi darajali yurist.

E-mail: sevinchhkl@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ijtimoiy tarmoqlar orqali uzatilgan xabarlar pragmatik mazmunini baholash bugungi globallashuv davrida muhim ahamiyat kasb etadi. Keyingi vaqlarda ijtimoiy tarmoqlar orqali uzatilgan xabarlarda davlat xavfsizligiga tahdid qiluvchi salbiy tashviqot semali xabarlar soni ko‘payib bormoqda. Bu esa axborotning ijtimoiy xavflilik darajasini baholash, uni ekspertiza qilish mezonlarini ishlab chiqish zaruratini qo‘yadi. Maqolada axborotning ijtimoiy xavflilik darajasini baholash xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: konstitutsiyaviy tuzum, ijtimoiy xavf, terrorizm, ekstremizm, terrorizm, irqchilik, ekspertiza, lingvistik ekspertiza, qonuniylik, targ‘ibot.

CRITERIA FOR ASSESSING THE LEVEL OF DANGER OF INFORMATION IN LINGUISTIC EXPERTISE

ANNOTATION

Assessing the pragmatic content of messages transmitted through social networks is of great importance in today’s era of globalization. In recent times, the number of negative propaganda messages threatening the security of the state has been increasing in the messages transmitted through social networks. This makes it necessary to assess the level of social danger of information and develop criteria for its expertise. The article talks about assessing the level of social danger of information.

Key words: constitutional system, social risk, terrorism, extremism, terrorism, racism, expertise, linguistic expertise, legality, propaganda.

Ijtimoiy tarmoqlarda mikro-bloklar(tvit, comment, feedback) lar tahlilida mazmunan haqorat, shaxs sha’niga daxl qilish, ichki nizolarni qo‘zg‘ash, insonlarda aggressiv kayfiyatni uyg‘otuvchi ayrim fikrlarni uchratish mumkin. Ijtimoiy

tarmoqlarda uchrovchi shu singari salbiylik ottenkasiga ega bo‘lgan axborotlarni mazmun liniyasiga ko‘ra quyidagicha guruhlarga ajratish mumkin:

- O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumiga ishonchsizlik, tajovuz mazmuniga ega bo‘lgan xabarlar.
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti shaxsiy daxlsizligiga xavf soluvchi, amalga oshirilayotgan islohotlarga ishonchsizlik hissini uyg‘otuvchi xabarlar.
- Mamlakat hududida irqiy nomutanosiblik, boshboshoqlik, agressivlik, ichki nizolarni qo‘zg‘ashga qaratilgan axborotlar.
- Mamlakat hududida qo‘poruvchilik, terroristik xatti-harakatlarni amalga oshirishga qaratilgan xabarlar.

Ushbu xarakterga ega bo‘lgan xabarlar ifodalanish shakliga ko‘ra turlicha tarzda bo‘lishi mumkin:

- Audio, video ko‘rinishidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri muayyan shaxs tomonidan omma oldida e’lon qilingan chiqishlar.
- Ijtimoiy tarmoqlar orqali maxsus maqsadda tayyorlangan video roliklar, matnli xabarlar.
- SMS-xabarnoma shaklida fuqarolarga yuboriluvchi xabarlar;
- Ijtimoiy tarmoqlar orqali siyosiy matnlarga bildirilgan fikrlar (tvit, comment, feedback).

Axborot oqimining kengligi va katta hajmga egaligi ular orasida g‘arazli maqsadlar ko‘zlangan, pragmatik mazmuni maxsus shaxsiy manfaatlarga asoslangan kommunikativ maqsad yashiringan xabarlarni ajratishda qiyinchilik tug‘diradi. Muayyan axborotga bildirilgan fikr har bir shaxsning shaxsiy munosabatini ifodalaydi va aksar hollarda bunday munosabat zamiridagi tub maqsad yashirinligicha qoladi. Bunday hollarda muayyan ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi tomonidan turli axborotga bildirilgan mazmuniy o‘xhash kommentariylar orqali aniqlash, xavflilik darajasi, pragmatik mazmunini baholash mumkin. Xususan, Facebook, Instagram ijtimoiy tarmog‘ hamda daryo.uz, qalampir.uz, saytlari YouTube platformasi orqali uzatilgan xabarlar, ularga bildirilgan kommentlar tahlillari shuni ko‘rsatadiki, biror axborotga nisbatan foydalanuvchilarning katta qismi negativ fikr bildirishga moyil. Xususan, Facebook sahifalarida uzatilgan 16 ta siyosiy xabarlarga bildirilgan kommentlarda umumiyl mulohazalar 748 tani tashkil etadi. Shulardan 219 tasi salbiy mazmunga ega bo‘lsa, 529 tasi ijobiy mazmunga ega. Ko‘rinadiki, ijobiy mazmunga ega xabarlar bilan bir qatorda, salbiy mazmunga ega bo‘lgan xabarlar ham salmog‘i anchani tashkil qiladi. Instagram ijtimoiy tarmog‘ida ham 16 ta post va ularga bildirilgan fikrlar tahlil qilinganda 529 ta fikrdan 132 tasi salbiy mazmunga egaligi, agressiv kayfiyat mavjudligini kuzatish mumkin. Tahlilga tortilgan ijtimoiy tarmoq materiallarining

aksariyatida xalqda norozilik, ishonchsizlik, agressivlik, shovinistik kayfiyatni uyg'otish mazmuniga egaligini kuzatish mumkin. Lingvistik ekspertizada shu xarakterga ega bo'lgan barcha xabarlar ham sud yoki muayyan nodavlat tashkilotlari tomonidan ekspertizaga buyurtma berilmaydi. Biroq keng xalq ommasining e'tiborini jalg qilgan, ularda boshboshdoqlik, ishonchsizlik kayfiyatini uyg'otadigan yoki davlat rahbari, mansabdor shaxslarni obro'sizlantirishga qaratilgan xabar yoki kommentlar lingvistik ekspertiza obyekti sifatida tahlilga tortilishi mumkin.

Konstitutsiyaviy tuzumga tajovuz mazmuniga ega matnlarni keng mazmunda sharhlash mumkin. Xususan, muayyan millat o'rtasida boshboshdoqlik, agressivlik kayfiyatini uyg'otuvchi matnlar. Bunday tipdagi tarmoq xabarlar qasddan xalq o'rtasida nizo qo'zg'ash, tajovuzkor kayfiyatni uyg'otish va buzg'unchilikka da'vat etish mazmunini tashiydi. Ijtimoiy tarmoqlarda uzatilgan ushbu tipdagi matnlarning asosiy qismi chet elda syomka qilingan videolar, anonim profil egalari tomonidan qoldirilgan postlar ko'rinishida ifodalangan. Bu esa ushbu materiallarning xalq orasida adovat, isyonni qo'zg'ash, agressiv kayfiyatni uyg'otishga qaratilgan oshkora va yashirin da'vat semasiga ega matnlar sanaladi. Shu boisdan ushbu tipdagi matnlar ekspertizasida xabarning xavflilik darajasini huquqiy jihatdan baholab, matnning pragmatik mazmuni, leksik-semantik xususiyatlarini aniqlashni lingvist-ekspert zimmasiga topshirish lozim. Qasddan da'vat etish, parokandalikka olib kelishni ko'zlagan siyosiy jihatdan xavfli axborotlarning leksik-semantik, pragmatik, stilistik xususiyatlariga muvofiq ekspertiza qilish kutilayotgan xavfning oldini olishga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Musulmonova K. Anonim xatlar bo‘yicha lingvistik ekspertiza // Збірникнауковихпраць SCIENTIA. – 2021.
2. Musulmonova K. Matn muallifining individual xususiyatlarini aniqlash bo‘yicha lingvistik ekspertiza//Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot. – 2022. – Т. 1. – №. 20. – С. 53-56.
3. Макаров В.И., О.С.Макарова . ОПРАВДАНИЕ ТЕРРОРИЗМА: ВОПРОСЫ ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ// Ученые записки Новгородского государственного университета имени Ярослава Мудрого. № 8 (33). 2020
4. Musulmonova K. Matn avtorizatsiya bilan bog‘liq holatlar bo‘yicha o‘tkazilgan lingvistik ekspertiza ishlari natijalari//Збірникнауковихпраць SCIENTIA. – 2021.
5. Bhatia, Tej K., and William C. Ritchie. "Multilingualism and Forensic Linguistics." The Handbook of Bilingualism and Multilingualism (2012): 671-699.
6. Губаева, Т.В. Судебная экспертиза по делам об экстремизме [Электронный ресурс] / Т.В. Губаева. – Режим доступа: http://siberiaexpert.com/publ/satti/stati/sudebnaja_ekspertiza_po_delam_ob_ekstremizme_t_v_gubaeva/4-1-0-163 – (25.08.2012).
7. Борисов, С.С. Преступления экстремистской направленности: проблемы законодательства и правоприменения [Электронный ресурс]: автореф. дис. ... д-ра юрид. наук: 12.00.08 / С.С. Борисов; Московский университет МВД России.–М., 2012.–46 с.–Режим